

«SEMURG INSURANCE»  
aksiyadorlik jamiyat  
Aksiyadorlarining navbatdan tashqari  
umumiylig'ilihi tomonidan  
2023-yil 08-sentyabr kungi  
22-sonli qarori bilan



TASDIQLANGAN

G.E.Lavrishchev

**«SEMURG INSURANCE»**  
**aksiyadorlik jamiyat**

**U S T A V I**  
**(yangi tahrir)**

TOSHKENT - 2023-yil

## I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu Ustav O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi va "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunlari va amaldagi boshqa qonunlari, qonunosti me'yoriy-huquqiy hujjatlari (keyingi o'rnlarda "O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari") asosida ishlab chiqilgan bo'lib, "SEMURG INSURANCE" aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rnlarda "Jamiyat" deb yuritiladi)ning tashkil topishi va faoliyat yuritishi tartibini belgilab beradi.

1.2. Jamiat muqaddam O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi davlat xizmatlari agentligining Yakkasaroy tuman Davlat xizmatlari markazi tomonidan 2020-yil 9-aprel kuni 821775–sonli reestr raqami bilan "SEMURG INSURANCE" Mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi qo'shma korxonasi sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

1.3. Jamiat ishtirokchilarining (ta'sischilarning) 2022-yil 25-yanvar kungi 18-sonli qaroriga asosan Jamiatning tashkiliy-huquqiy shakli aksiyadorlik jamiyati sifatida qayta tashkil etilayotgan bo'lib, ilgari faoliyat yuritib kelgan mas'uliyati cheklangan jamiyatning huquqiy vorisi hisoblanadi hamda ilgari tuzilgan barcha shartnomalar va majburiyatlar bo'yicha mas'uliyatlarini o'z zimmasiga olgan.

1.4. Jamiat faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga va o'z Ustaviga amal qiladi, ularning bajarilishini ta'minlash maqsadida hamda o'z faoliyatiga oid masalalar yuzasidan ichki me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi.

1.5. Jamiatning nomlanishi:

*Jamiatning to'liq rasmiy nomi:*

- O'zbek tili kirill yozuvida: «SEMURG INSURANCE» акциядорлик жамияти;
- O'zbek tili lotin yozuvida: «SEMURG INSURANCE» aksiyadorlik jamiyati;
- Rus tilida: Акционерное общество «SEMURG INSURANCE»;
- Ingliz tilida: Joint stock company «SEMURG INSURANCE».

*Jamiatning qisqartirilgan rasmiy nomi:*

- O'zbek tili kirill yozuvida: «SEMURG INSURANCE» АЖ;
  - O'zbek tili lotin yozuvida: «SEMURG INSURANCE» AJ;
  - Rus tilida: AO «SEMURG INSURANCE»;
  - Ingliz tilida: «SEMURG INSURANCE» JSC.
- Jamiatning savdo belgisi: «SEMURG INSURANCE».

1.6. Jamiatning joylashgan manzili (pochta manzili): O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Sodiq Azimov ko'chasi, 50-uy. Pochta manzili: 100047.

- Jamiatning elektron pochta manzili: info@semurgins.uz.
- Jamiatning rasmiy veb-sayti: www.semurginsurance.uz.

1.7. Jamiat faoliyat ko'rsatish muddati cheklanmagan muddatga tuzilgan.

## II. JAMIYATNING HUQUQIY HOLATI VA JAVOBGARLIGI

2.1. Jamiat yuridik shaxs bo'lib, u o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan o'zining ustav kapitaliga berilgan mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2.2. Jamiat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi. Jamiat faoliyat ko'rsatish muddati cheklanmagan holda tashkil etiladi.

2.3. Jamiat O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida bank hisobvaraqlari ochishga haqlidir.

2.4. Jamiyat o‘zining firma nomi davlat tilida to‘liq yozilgan hamda joylashgan joyi ko‘rsatilgan dumaloq muhrga ega bo‘lishi mumkin. Muhrda bir vaqtning o‘zida firmaning nomi boshqa istalgan tilda ham ko‘rsatilishi mumkin.

2.5. Jamiyat o‘zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o‘z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo‘lishga haqli.

2.6. Jamiyat o‘z majburiyatlari yuzasidan o‘ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo‘ladi.

2.7. Aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi va uning faoliyati bilan bog‘liq zararlarning o‘rnini o‘zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchilagini o‘z zimmasiga oladi.

2.8. Aksiyalarning haqini to‘liq to‘lamagan aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan o‘zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to‘lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo‘ladi.

2.9. Jamiyat o‘z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi.

2.10. Agar jamiyatning bankrotligi Jamiyat uchun majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar berish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar sifatida ish yuritayotgan shaxsning gayriqonuniy harakatlari tufayli yuzaga kelgan bo‘lsa, jamiyatning mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda, mazkur aksiyadorlarning zimmasiga Jamiyatning majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin. Aksiyadorlar majburiy ko‘rsatmalar berish huquqiga ushbu ustavida bu huquq nazarda tutilgan taqdirdagina ega bo‘ladi.

2.11. Jamiyat uchun majburiy ko‘rsatmalar berish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar jamiyat muayyan harakatni amalga oshirishi oqibatida bankrot bo‘lishini oldindan bila turib, ushbu huquqidan jamiyat tomonidan shunday harakat amalga oshirilishi uchun foydalangan taqdirdagina Jamiyatning bankrotligi aksiyadorlarning harakatlari tufayli yuzaga kelgan deb hisoblanadi.

2.12. Davlat va uning organlari Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi, huddi shuningdek jamiyat ham davlat va uning organlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi.

2.13. Jamiyat Ustavi qoidalari va jamiyatning aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi, Kuzatuv kengashi, Ijrochi organi qarorlari asosida qabul qilingan jamiyating tasdiqlangan ichki hujjalari o‘rtasida ziddiyatlar vujudga kelgan taqdirda, mazkur Ustav ustunlik qiladi.

### **III. JAMIYATNING FILIALLARI VA VAKOLATXONALARI**

3.1. Jamiyat qonunchilikda belgilangan tartibda filiallar tashkil etishga va vakolatxonalar, sho‘ba korxonalari ochishga haqli. Filial Jamiyatning Jamiyat joylashgan yerdan tashqarida joylashgan hamda uning barcha vazifalarini yoki ularning bir qismini, shu jumladan vakolatxonaning vazifalarini amalga oshiradigan alohida bo‘linmasidir.

3.2. Jamiyatning filiali va vakolatxonasi yuridik shaxs bo‘lmaydi. Ular tasdiqlangan nizom asosida ish yuritadi. Jamiyatning filialga va vakolatxonasiga berib qo‘yilgan mol-mulki jamiyatning balansida hisobga olinadi.

3.3. Filialning yoki vakolatxonaning rahbari Jamiyat tomonidan tayinlanadi va Jamiyat tomonidan berilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi.

3.4. Jamiyat qonun hujjalariга muvofiq sho‘ba va tobe xo‘jalik Jamiyatlariga ega bo‘lishi mumkin.

3.5. Jamiyat O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjalari talablariga muvofiq boshqa yuridik shaxslarning ta’sischisi bo‘lishiga yoki ularning ustav kapitalida boshqacha tarzda ishtirok etishga haqli.

3.6. Jamiyat xo‘jalik assotsiatsiyalari, korxonalar, jamiyatlar, uyushmalar, konsernlar, konsorsiumlar, korporatsiyalar, xoldinglar, gruppalar va boshqa birlashmalar faoliyatida ishtirok etishga va ularga qo‘shilishga haqlidir, shuningdek mahalliy va xorijiy yuridik shaxslarning va xalqaro tashkilotlarning faoliyatida, shu jumladan ularning Ustav fondidagi aksiyalari va hissalarini sotib olish yo‘li bilan ishtirok etishi mumkin.

#### **IV.JAMIYAT FAOLIYATINING SOHASI (ASOSIY YO‘NALISHLARI) VA MAQSADI**

4.1. Jamiyat tijorat tashkiloti hisoblanadi, uning asosiy maqsadi sug‘urtalovchining sug‘urta (sug‘urtaning ixtiyoriy va majburiy turlari) va qayta sug‘urtalash faoliyati, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq investitsion faoliyatdir.

4.2. Jamiyat quyidagi maqsadlar uchun tashkil etilgan:

- yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini inson faoliyatining turli sohalaridagi tabiiy ofatlar, favqulodda holatlar va voqealar natijasida yetkazilgan zarar va yo‘qotishlarni to‘liq yoki qisman qoplash ko‘rinishida ularga sug‘urtaviy to‘lovn (sug‘urta summasini) ular to‘laydigan sug‘urta mukofotlaridan shakllantiriladigan mablag‘ fondlari hisobiga sug‘urtaviy himoya qilish;
- davlat, tijorat, tadbirdorlik va boshqa tuzilmalarga, O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlariga majburiy va ixtiyoriy keng ko‘lamli sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish uchun moddiy va nomoddiy aktivlarni birlashtirish yo‘li bilan o‘z aksiyadorlari va o‘z manfaatlari uchun foyda olish;
- investitsion faoliyatdan foyda olish.

4.3. Ko‘rsatilgan maqsadlarga erishish uchun Jamiyat quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi:

- O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sug‘urtaning ixtiyoriy va majburiy turlarini, qayta sug‘urta operatsiyalarini amalga oshiradi, mahalliy va xorijiy yuridik hamda jismoniy shaxslarga sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatadi;
- amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda investitsion faoliyatni amalga oshiradi;
- belgilangan tartibga binoan sug‘urta to‘lovlarini miqdorini aniqlaydi hamda korxona, tashkilot va jismoniy shaxslarga sug‘urta qoplamlarini to‘lashni amalga oshiradi;
- barcha hududlarda sug‘urtalanuvchilarining (sug‘urta qildiruvchilarining) extiyojlarini to‘liqroq qanoatlantirilishiga yordam beruvchi yangi sug‘urta turlarini ishlab chiqadi hamda tadbiq etadi;
- Jamiyat o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarishni ta’minalash uchun amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda sug‘urta zaxiralarini shakllantiradi;
- sug‘urta obyektlari nobud bo‘lishi va zararlanishining oldini oluvchi tadbirdarni amalga oshiradi;
- birgalikda sug‘urtalash va qayta sug‘urtalash operatsiyalarini maxalliy valyutada, shuningdek, chet el valyutasida qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda amalga oshiradi;
- sug‘urta masalalarida maslahatlar beradi;
- amaldagi qonun hujjatlariga va ushbu ustavga zid kelmaydigan shartlar bilan, Jamiyatning faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan zaxira va boshqa fondlarni shakllantiradi, shuningdek ulardan o‘z o‘rnida foydalanadi;
- O‘zbekiston Respublikasining vazirliklari va idoralari, boshqa davlatlarning tashkilotlari bilan amaliy aloqalar o‘rnatadi, hamkorlik qiladi, bu aloqa va hamkorlikni rivojlantiradi, birgalikdagi sug‘urta faoliyatini yuritadi;

- xorijiy mamlakatlarning eksport-kredit agentliklari, sug‘urta va qayta sug‘urta kompaniyalari bilan tijorat va siyosiy xatarlarni sug‘urtalash bo‘yicha hamkorlik o‘rnatadi;
- O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi o‘rnatilgan doirada korxonalar, tashkilotlarni boshqaradi;
- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi o‘rnatilgan doirada barcha turdagি tijorat bitimlarini amalga oshiradi;
- tashqi iqtisodiy faoliyatning barcha turlarini amalga oshiradi;
- ishlab chiqarish, savdo va faoliyatning boshqa turlariga investitsiyalashni amalga oshiradi;
- patentlar, litsenziyalar, texnologiyalar va nou-xaularni sotadi va sotib oladi;
- faoliyatning turli sohalarida konsalting va maslahat xizmatlarini ko‘rsatadi;
- vositachilik, marketing xizmatlarini ko‘rsatadi, qimmatli qog‘ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshiradi;
- ko‘chmas mulk bilan operatsiyalarni, shu jumladan yer uchastkalari, binolar va inshootlarni sotib olish, ijara berish va sotishni amalga oshiradi;
- innovatsion faoliyatni amalga oshiradi.

4.4. Jamiyat yuqorida ko‘rsatilgan faoliyat turlaridan tashqari, O‘zbekiston Respublikasidagi amaldagi qonunchilikda ta’qilangan boshqa faoliyat turlarini ham amalga oshirish huquqiga ega.

4.5. Jamiyat sug‘urta faoliyatini sug‘urtachi/qayta sug‘urtalovchi sifatida Sug‘urta bozorini rivojlantirish vakolatli davlat organi tomonidan berilgan litsenziya asosida amalga oshiradi.

## **V. JAMIYAT USTAV KAPITALINING MIQDORI**

5.1. Jamiyatning ustav kapitali aksiyadorlar olgan Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida ifodalananadi.

5.2. Jamiyatning ustav kapitali 9 000 000 (to‘qqiz million) dona joylashtirilgan har bir aksiyaning nominal qiymati 5 000 (besh ming) so‘m bo‘lgan jamiyat aksiyalaridan iborat bo‘lib, 45 000 000 000 (qirq besh milliard) so‘mni tashkil qiladi

### **Ustav kapitalini ko‘paytirish**

5.3. Jamiyatning ustav kapitali qo‘srimcha aksiyalarini joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirilishi mumkin.

5.4. Qo‘srimcha aksiyalar faqat jamiyat ustavida belgilangan, e’lon qilingan aksiyalarning soni doirasida jamiyat tomonidan joylashtirilishi mumkin.

5.5. Jamiyat ustav kapitalini oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalariga qo‘srimcha ravishda chiqarishi mumkin bo‘lgan e’lon qilingan aksiyalari miqdori mavjud emas.

5.6. Ustav kapitalini qo‘srimcha aksiyalarini joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirish to‘g‘risidagi qarorda joylashtiriladigan qo‘srimcha aksiyalarning umumiy qiymati, soni, turi, nominal qiymati, joylashtirish tartibi, usuli, muddati, joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog‘ozlar savdolariga chiqarish) narxi, aksiyalar uchun to‘lov tartibi, amalga oshmagan deb topish ulushi va amalga oshmagan deb topilgan taqdirda aksiyalar uchun qabul qilingan to‘lov vositalarini qaytarish tartibi Jamiyat kengashining tegishli qarorida belgilanadi.

5.7. Qo‘srimcha chiqarilgan aksiyalar bozor qiymatida, lekin nominal qiymatidan kam bo‘limgan qiymatda joylashtiriladi. Agar jamiyatning aksiyalari fond birjasining birja kotirovkasi varag‘iga kiritilgan bo‘lsa, ularning birja kotirovkalari aksiyalarning bozor qiymati deb e’tirof etiladi.

5.8. Jamiyat tomonidan qo‘srimcha chiqarilayotgan aksiyalar ochiq va/yoki yopiq obuna usullari bilan joylashtirilishi mumkin.

5.9. Jamiyatning ustav kapitalini ko‘paytirish to‘g‘risidagi va Jamiyat ustaviga tegishli o‘zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar Jamiyat kuzatuv kengashi qarori bilan qabul qilinadi.

5.10. Jamiyat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayrboshlanadigan, haqi pul mablag‘lari bilan to‘lanadigan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egasi bo‘lgan aksiyadorlar o‘ziga tegishli shu turdagи aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda ularni imtiyozli olish huquqiga ega.

5.11. Imtiyozli huquqqa ega bo‘lgan shaxslarning ro‘yxati qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan sanadagi Jamiyat aksiyadorlari reestrining ma’lumotlari asosida tuziladi.

5.12. Imtiyozli huquqni qo‘llamaslik to‘g‘risidagi qaror, shuningdek bunday qarorning amal qilish muddati haqidagi qaror aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi qarori bilan qabul qilinishi mumkin. Bunday qarorning amal qilish muddati ushbu qaror qabul qilingan paytdan e’tiboran bir yildan ortiq bo‘lishi mumkin emas.

5.13. Jamiyatning ustav kapitalini ko‘paytirish joylashtirilgan qo‘srimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Jamiyatning tegishli boshqaruvi organi tomonidan qabul qilingan qo‘srimcha aksiyalarni chiqarish haqidagi qaror Jamiyatning ustav kapitalini ko‘paytirish to‘g‘risidagi qarordir.

5.14. Jamiyatning ustav kapitalini uning o‘z kapitali hisobidan ko‘paytirishda qo‘srimcha aksiyalar barcha aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanadi. Bunda har bir aksiyadorga qaysi turdagи aksiya tegishli bo‘lsa, ayni o‘sha turdagи aksiyalar unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Jamiyatning ustav kapitalini ko‘paytirilishi natijasida ko‘paytirish summasining bitta aksiyaning nominal qiymatiga muvofiqligi ta’minlanmaydigan bo‘lsa, jamiyatning ustav kapitalini ko‘paytirishga yo‘l quyilmaydi.

### **Ustav kapitalini kamaytirish**

5.15. Jamiyatning ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiyligi sonini qisqartirish yo‘li bilan, shu jumladan Jamiyat tomonidan aksiyalarning bir qismini sotib olish va kelgusida ularni bekor qilish yo‘li bilan ham kamaytirilishi mumkin.

5.16. Agar ustav fondi (ustav kapitali)ni kamaytirish natijasida uning miqdori qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdoridan kamroq bo‘lsa, jamiyat ustav fondi (ustav kapitali)ni kamaytirishga haqli emas.

5.17. Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish to‘g‘risidagi va jamiyat ustaviga tegishli o‘zgartirishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadi.

5.18. Ustav kapitalini kamaytirish to‘g‘risida qaror qabul qilgan vaqtida aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi qarorida ustav kapitalini kamaytirish sabablarini ko‘rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

5.19. Jamiyat tomonidan aksiyalarni qaytarib sotib olishga yo‘naltiriladigan mablag‘larning umumiyligi summasi aksiyadorlarda o‘zlariga qarashli aksiyalarni qaytarib sotib olishni talab qilish huquqi yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan qaror qabul qilingan sanadagi jamiyat so‘f aktivlari qiymatining o‘n foizidan oshib ketishi mumkin emas.

5.20. Jamiyat kreditorlarni ustav kapitalini kamaytirish to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan boshlab o‘ttiz kundan kechiktirmay yozma ravishda xabardor qiladi. Kreditorlar ularga Jamiyat ustav kapitalining kamayishi to‘g‘risida xabar berilgan kundan boshlab o‘ttiz kundan kechiktirmay Jamiyatdan o‘z majburiyatlarini muddatidan oldin bajarilishini va tegishli zararlarning qoplanishini talab qilishga haqlidirlar.

## **VI. JAMIYAT AKSIYALARINING TURLARI, NOMINAL QIYMATI VA HAR XIL TURDAGI AKSIYALARINING NISBATI**

6.1. Jamiyatning barcha aksiyalari egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz hisoblanadi.

6.2. Jamiyat o'zining aksiyalari oddiy, shuningdek imtiyozli aksiyalar chiqarish huquqiga ega bo'lib, hujjatsiz shaklda hisobi yuritiladi

6.3. Jamiyatning joylashtirilgan aksiyalarining soni 9 000 000 (to'qqiz million) donadan iborat.

6.4. Jamiyat bitta aksiyasining nominal qiymati 5 000 (besh ming) so'm.

6.5. Jamiyatning aksiyalari bo'linmasdir. Agar aksiya bir necha shaxslarga umumiyl mulk huquqida tegishli bo'lsa, ularning barchasi bitta aksiyador deb topiladi va aksiya bilan tasdiqlangan huquqlardan o'zining umumiy vakili orqali foydalanadi. Bir turdag'i aksiya unga ega har bir aksiyadorga bunday aksiyalarning boshqa egalariga berilgan hajmda huquq beradi.

6.6. Oddiy aksiyalarni imtiyozli aksiyalarga, korporativ obligatsiyalarga va boshqa qimmatli qog'ozlarga ayirboshlashga yo'l qo'yilmaydi. Jamiyat qonun hujjatlariga va ustaviga muvofiq, aksiyalar bilan bir qatorda obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirishga haqli.

## **VII. AKSIYADORLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

7.1. Jamiyatning aksiyadorlari quyidagi huquqlarga ega:

- tegishli Jamiyat aksiyadorlarining reestriga kiritilish;
- depo hisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish;
- Jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;
- aksiyadorlik jamiyatni tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;
- aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali ishtirop etish;
- belgilangan tartibda Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va to'g'ri axborot olish;
- olgan dividendini erkin tasarruf etish;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;
- o'ziga yetkazilgan zararlarning o'rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;
- o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;
- qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish huquqiga ega.

7.2. Aksiyador tomonidan huquqlarning amalga oshirilishi boshqa aksiyadorlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi lozim.

7.3. Aksiyadorlar o'z huquqlarini bevosita, shaxsan va vakili orqali amalga oshirishlari mumkin. Vakil sifatida har qanday uchinchi shaxs, shu jumladan boshqa aksiyador, shuningdek Jamiatning mansabdar shaxsi qatnashishi mumkin. Vakil tayinlash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

7.4. Aksiyalarni boshqa shaxsga berishga doir cheklov belgilanishi aksiyadorni — mazkur aksiyalar egasini qonunda belgilangan tartibda Jamiatni boshqarishda ishtirop etish va ular bo'yicha dividendlar olish huquqididan mahrum qilmaydi.

7.5. Aksiyalarga bo‘lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobvarag‘iga tegishli kirim yozuvi kiritilgan paytdan e’tiboran o‘tadi va qonun hujjalarda belgilangan tartibda beriladigan depo hisobvarag‘idan ko‘chirma bilan tasdiqlanadi. Aksiya bilan tasdiqlanadigan huquqlar ushbu qimmatli qog‘ozga bo‘lgan huquqlar o‘tgan paytdan e’tiboran ularni oluvchiga o‘tadi.

7.6. Aksiyador mazkur Ustavda va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo‘ladi.

7.7. Jamiat aksiyadorlari quyidagi majburiyatlarga ega:

- Jamiyatning Ustav qoidalariga va Ustavda ko‘rsatilgan tartibda, miqdorda va usulda hissa qo‘shish (aksiya haqini to‘lash);
- Jamiyat faoliyati to‘g‘risidagi maxfiy ma’lumotlarni tashkil qiluvchi sirlarni fosh qilmaslik;
- minoritar aksiyadori hujjalarni asossiz ravishda talab qilish va maxfiy axborotlar, tijorat sirlarini qo‘llash yo‘li bilan Jamiat Bosh direktori faoliyatiga to‘sinqinlik qilmasligi lozim;
- aksiyadorlar o‘ziga oid ma’lumotlardagi o‘zgarishlar haqida Jamiatni, uning aksiyalarga bo‘lgan huquqlarini hisobga olish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi Markaziy depozitariyni va/yoki investitsiya vositachisini o‘z vaqtida (ikki ish kuni ichida) xabardor qilishi shart. Aksiyadorlar o‘ziga oid ma’lumotlar o‘zgarganligi haqidagi axborotni taqdim etmagan hollarda, Jamiat, Markaziy depozitariy va investitsiya vositachisi buning oqibatida aksiyadorga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘lmaydi.

7.8. Aksiyadorlar mazkur ustavda va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘ladi.

## **VIII. JAMIYATNING DIVIDENDLARINI TAQSIMLASH VA DIVIDENDLARNI TO‘LASHGA CHEKLOVLAR**

8.1. Dividend - bu Jamiat so‘f foydasining aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanadigan qismidir.

8.2. Jamiat aksiyalarning har bir turi bo‘yicha e‘lon qilingan dividendlarni to‘lashi shart.

8.3. Jamiat aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishi qaroriga binoan dividend pul mablag‘lari yoki boshqa qonuniy to‘lov vositalari bilan to‘lanishi mumkin.

Dividend aksiyadorlarga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

8.4. Jamiat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to‘qqiz oyi natijalariga ko‘ra va/yoki moliyaviy yil natijalariga ko‘ra, joylashtirilgan aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli.

Jamiatning moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to‘qqiz oyi natijalariga ko‘ra dividendlar to‘lash to‘g‘risidagi qarori tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.

8.5. Aksiyalarning har bir turi bo‘yicha dividendlar to‘lash, dividendning miqdori, uni to‘lash shakli va tartibi to‘g‘risidagi qaror jamiat kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi hakida auditorlik hulosasi mavjud bo‘lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadi.

8.6. Dividendlar to‘lash to‘g‘risidagi qarorda, dividendning miqdori, dividendni to‘lash shakli va tartibi hamda uni to‘lash muddati, ya’ni to‘lash boshlanadigan va tugaydigan sanalar ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

8.7. Dividendlar jamiatning jamiat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va/yoki o‘tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to‘lanadi.

8.8. Jamiat tomonidan oddiy aksiyalar bo‘yicha hisoblangan dividendlarni to‘lash aksiyadorlarning dividendlarni olishga bo‘lgan huquqlariga rioxal holda amalga oshiriladi.

Dividendlar to‘lash to‘g‘risidagi qarorda dividendlar to‘lash boshlanadigan va tugallanadigan sanalar ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

Dividendlarni to‘lash muddati va tartibi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan qabul qilingan qarorida belgilanadi. Dividendlarni to‘lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e’tiboran oltmisht kundan kech bo‘lmasligi lozim.

Egasi yoki egasining qonuniy huquqiy vorisi yoxud merosxo‘ri tomonidan uch yil ichida talab qilib olinmagan dividend aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qaroriga ko‘ra jamiyat ixtiyorida qoladi.

#### 8.9. Dividendlar to‘lashdagi cheklashlar:

Jamiyat aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lashga va to‘lash bo‘yicha qaror qabul qilishga haqli emas:

- agar dividendlar to‘lanadigan paytda Jamiyatda to‘lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) belgilari bo‘lsa yoki dividendlar to‘lash natijasida Jamiyatda shunday alomatlar paydo bo‘lsa;
- Jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustavi va zaxira fondlari (ustav kapitali) summasidan kam bo‘lsa.

Ushbu moddada ko‘rsatilgan holatlar yakunlanishi bilan Jamiyat aksiyadorga dividendlarni to‘lashi shart.

8.10. Jamiyat dividendlarning miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e’lon qiladi. Jamiyat to‘lanadigan dividendlar miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organining va jamiyatning rasmiy veb-saytlarida qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda e’lon qiladi.

### IX. JAMIYATNING SUG‘URTA ZAXIRALARI VA ZAXIRA FONDI

#### 9.1. Jamiyatning sug‘urta zaxiralari:

9.1.1. Jamiyatning sug‘urta zaxiralari olingen sug‘urta badallaridan O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hamda shartlar bilan hosil qilinadi;

9.1.2. Sug‘urta zaxiralari jamiyat o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarishni ta’minalash uchun mo‘ljallangan.

9.2. Jamiyat sof foydasidan majburiy ajratmalar hisobiga ustav kapitalining 15 foizidan kam bo‘limgan miqdorda jamiyat zaxira fondini tashkil qiladi. Har yilgi ajratmalar, yuqorida ko‘rsatilgan 15 foiz miqdoriga yetgunga qadar sof foydaning 5 foizidan kam bo‘lmisligi kerak.

9.3. Jamiyatning zaxira fondi, boshqa mablag‘lar bo‘limgan taqdirda Jamiyatning zararlarini qoplash, Jamiyatning korporativ aksiyalarini chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash va Jamiyat aksiyalarini sotib olish uchun mo‘ljallangan. Zaxira fondidan boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin emas.

9.4. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga mos ravishda boshqa fondlar tuzish va ularga jamiyat foydasidan ajratmalar belgilash/ajratish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi mumkin.

9.5. Jamiyat fondlaridan foydalanish jamiyat Kuzatuv kengashining qarori bilan amalga oshiriladi. Jamiyat fondlaridan foydalanish to‘g‘risidagi jamiyat Kuzatuv kengashi qarorida, fond mablag‘larini qaysi davr ichida sarflash, fond mablag‘lari miqdori, shu bilan birga fond mablag‘laridan foydalanishning boshqa shartlari ko‘rsatib beriladi.

### X. JAMIYATNING BOSHQARUV ORGANLARI

#### 10.1. Jamiyatni quyidagi organlar boshqaradi:

- Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi;

- Kuzatuv kengashi;
- Ijroiya organi (Bosh direktor).

## **XI. JAMIYAT AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG‘ILISHI**

11.1. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.

11.2. Jamiyat har yili aksiyadorlarning yillik (navbatdagi) umumiy yig‘ilishini o‘tkazishi shart. Aksiyadorlarning umumiy yillik yig‘ilishi yil tugaganidan keyin ko‘pi bilan olti oy ichida o‘tkaziladi. Aksiyadorlarning umumiy hisobot yig‘ilishida Jamiyatning Kuzatuv Kengashi va taftish komissiyasini (taftishchisini) (agar jamiyatda taftishchi faoliyati ko‘zda tutilgan bo‘lsa) saylash to‘g‘risidagi, Jamiyatning ijroya organi-bosh direktor bilan tuzilgan shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish (shartnomani qayta tuzish yoki uni tugatish (bekor qilish) mumkinligi to‘g‘risidagi, shuningdek Jamiyatning yillik hisoboti, Jamiyat ijroya organi va Kuzatuv Kengashining Jamiyatning taraqqiyot strategiyasiga erishish bo‘yicha qabul qilinayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi hisobotlari hamda O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” gi Qonunining 59-moddasi birinchi qismiga muvofiq boshqa hujjatlar ham ko‘rib chiqiladi.

11.3. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishidan tashqari o‘tkaziladigan umumiy yig‘ilishlari navbatdan tashqari yig‘ilishlardir.

11.4. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyatning ustaviga o‘zgartirishlar va to‘ldirishlar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;
- Jamiyatni qayta tashkil etish;
- Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash, oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;
- Kuzatuv Kengashining miqdoriy tarkibini belgilash, uning a’zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- e’lon qilingan aksiyalarning eng ko‘p miqdorini belgilash;
- Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish;
- o‘z aksiyalarini sotib olish;
- Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;
- Jamiyatning yillik hisobotini, shuningdek Jamiyatning asosiy yo‘nalishlari va vazifalaridan kelib chiqib, Jamiyatning o‘rtा va uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash;
- Jamiyatning foyda va zararlarini tasdiqlash;
- Kuzatuv Kengashi vakolatlariga oid masalalar bo‘yicha hisobotlarini tinglash, shu jumladan Jamiyatni boshqarish to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi to‘g‘risida ham;
- Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga konvertatsiya qilinadiganlarini ham chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- hosilaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qayta sotib olish to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” gi Qonunining 35-moddasida nazarda tutilgan imtiyozli huquqlarni qo‘llamaslik to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik Jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 34-moddasiga muvofiq aksiyalarini joylashtirish narxini aniqlash (tashkil etilgan qimmatli qog‘ozlar savdolariga chiqarish);
- aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining reglamentini tasdiqlash;

- aksiyalarni maydalash va birlashtirish;
- Jamiatning ijroya organiga to‘lanadigan mukofotlar va/yoki kompensatsiyalar, shuningdek ularning maksimal miqdorini belgilash;
- O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 8 va 9 boblarida nazarda tutilgan hollarda Jamiat tomonidan bitimlarni amalga oshirish to‘g‘risida qaror kabul qilish. Bunda Jamiatning kundalik faoliyati davomida tuzilgan bitimlar (sug‘urta, qayta sug‘urtlash va investitsion faoliyat) (sug‘urta, qayta sug‘urtlash va investitsion faoliyat bilan bog‘liq shartnomalar), aksiyalar va qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish bilan bog‘liq bitimlar ushbu bandning maqsadlarida yirik bitimlar deb hisoblanmaydi;
- majburiy auditor tekshiruv o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini tayinlash, ushbu tashkilotning xizmatlarini to‘lash uchun to‘loving maksimal miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to‘g‘risida qaror;
- homiylik (xayriya) yoki nodiskriminatsion yordamni ko‘rsatish tartibi va shartlarini belgilash, o‘z vakolatlarini Jamiatning Kuzatuv Kengashiga o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- hisob komissiyasiga amaliy yordam ko‘rsatish yoki uning funksiyalarini bajarish uchun mustaqil ekspertlarni (masalan, investitsion maslahatchi yoki qimmatli qog‘ozlar bozorining boshqa professional ishtirokchisini) jalb etish tartibini o‘rnatish (tasdiqlash);
- qonunchilikka muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

11.5. “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunning 59-moddasi birinchi qismining ikkinchi, to‘rtinchi, oltinchi va o‘n to‘rtinchi xatboshilarida, 84-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlari, 88-moddasining beshinchi qismida ko‘rsatilgan masalalar bo‘yicha qarorlar aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi tomonidan ko‘pchilik aksiyadorlarning to‘rtdan uch qismining ovozi, aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalar egalari (malakali ko‘pchilik) tomonidan qabul qilinadi.

11.6. Aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki o‘z vakili orqali amalga oshiriladi. Aksiyadorning vakili O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunning 67-moddasi talablariga muvofiq yozma ravishda rasmiiylashtirilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi.

11.7. Ovoz berish natijalari ovoz berish o‘tkazilgan aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishida e’lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi yopilgandan so‘ng Jamiatning korporativ saytida va korporativ ma’lumotlar yagona portalida ovoz berish natijalari to‘g‘risidagi hisobot qonunchilikda belgilangan muddatlarda aksiyadorlar e’tiboriga yetkaziladi.

## XII. JAMIYATNING KUZATUV KENGASHI

12.1. Jamiatning Kuzatuv Kengashi Jamiat faoliyatiga umumiyligi rahbarlik qiladi, O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun va Jamiat ustavi bilan aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishining mutlaq vakolatlariga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

12.2. Jamiatning Kuzatuv Kengashi a’zolari aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi tomonidan uch yil muddatga sayylanadi. Jamiat Kuzatuv Kengashi a’zolarining soni 5 kishidan iborat.

12.3. Jamiatning Kuzatuv Kengashiga saylangan shaxslar nomuayyan muddatga qaytadan saylanishlari mumkin.

12.4. Jamiat Kuzatuv Kengashining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- Jamiyat ijroya organining Jamiyatning biznes-rejasining bajarilishi hamda taraqqiyot strategiyasiga erishish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotini doimiy ravishda tinglash yo'li bilan Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;
- Jamiyat aksiyadorlarining yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, agar O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunida boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa;
- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tuzish, yig'ilishni o'tkazish sanasi, vaqt va joyini belgilash;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risida xabar qilish uchun Jamiyat aksiyadorlari reestrini shakllantirish sanasini belgilash;
- O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunining 59-moddasi birinchi qismining ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan masalalarni hal etishni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga kiritish;
- mulkning bozor qiymatini aniqlashni tashkil etish;
- Jamiyatning ijroya organi rahbarini (bosh direktorni) saylash (tayinlash) va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- Jamiyatning ijroya organi rahbariga to'lanadigan mukofot va/yoki kompensatsiyaning miqdorini belgilash;
- korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash;
- Jamiyatning biznes-rejasini joriy yilning 1-dekabridan kechiktirmay tasdiqlash;
- ichki audit xizmatini tashkil etish va uning personalini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini tinglash;
- Jamiyat ijroya organining har qanday hujjatlariga erkin yo'l topish va Jamiyatning Kuzatuv Kengashiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun ushbu hujjatlarni ijroya organidan olish. Jamiyatning Kuzatuv Kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishlari mumkin;
- auditorlik tekshiruvini o'tkazish, shu jumladan auditning xalqaro standartlari bo'yicha tayyorlangan moliyaviy hisobotlarni audit qilish (majburiy auditorlik tekshiruvidan tashqari), auditorlik tashkiloti, uning xizmatiga to'lanadigan maksimal haq miqdorini belgilash va u bilan shartnoma tuzish (bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;
- jamiyatning taftish komissiyasi a'zolariga yoki taftishchisiga (agar jamiyatda taftishchi faoliyati ko'zda tutilgan bo'lsa) to'lanadigan mukofotlar va kompensatsiyalar miqdori bo'yicha tavsiyalar berish;
- dividendlar miqdori, ularni to'lash tartibi va shakli yuzasidan tavsiyalar berish;
- zaxira va boshqa fondlardan foydalanish;
- Jamiyatning vakolatxonalarini ochish hamda filiallarni tashkil etish;
- sho'ba va tobe Jamiyatlarni tashkil etish (ular aksiyadorlik jamiyat yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etilishi mumkin);
- qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda Jamiyat tomonidan yirik bitimlar va Jamiyatning affilyatsiya qilingan shaxslari bilan bitimlar tuzish to'g'risida qarorlar qabul qilish. Bunda Jamiyatning kundalik faoliyati davomida tuzilgan bitimlar (sug'urta, qayta sug'ortalash va investitsion faoliyat) (sug'urta, qayta sug'ortalash va investitsion faoliyat bilan bog'liq shartnomalar), aksiyalar va qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan bog'liq bitimlar ushbu bandning maqsadlarida yirik bitimlar deb hisoblanmaydi;
- qonunchilikda o'rnatilgan tartibda Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlaridagi ishtiroki

bilan bog‘liq bitimlarni tuzish;

- Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini sotib olish to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- dolzarb masalalar, shu jumladan, to‘qnashuvli vaziyatlarni aniqlash va hal etish va boshqa masalalar bo‘yicha Kuzatuv Kengashida Kuzatuv Kengashining, ijroya organining a’zolari, ijtimoiy xodimlar va jalb etilgan ekspertlardan (ixtisosli mutaxassislar, universitet professorlari va boshqalar) iborat qo‘mitalar tashkil etish (ishchi guruhlar tashkil etish);
- Jamiyatning ustav kapitalini ko‘paytirish masalalarini, shuningdek Jamiyat ustaviga jamiyatning ustav kapitalini ko‘paytirish hamda Jamiyatning e’lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog‘liq o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi masalalarni hal qilish;
- qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish va tasdiqlash;
- qimmatli qog‘ozlar emissiya risolasini tasdiqlash (qimmatli qog‘ozlar ommaviy joylashtirilgan taqdirda);
- avval ro‘yxatdan o‘tkazilgan qimmatli qog‘ozlar chiqarishlariga o‘zgartirish va (yoki) qo‘shimchalar kiritish;
- aksiyalarning joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog‘ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash;
- hosilaviy qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- Jamiyatning ma’muriy-xo‘jalik va moliyaviy faoliyatini tashkil etish va joriy nazorat qilish, quyidagilarni kiritgan holda (lekin bular bilan cheklanmay): Jamiyatning faoliyatini tezkor tashkil etish, Jamiyatning mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishni ta’minalash, Jamiyatning anderrayting, qayta sug‘ortalash, kadrlar, investitsion, dividend va korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini belgilash va tasdiqlash, mukofotlash siyosati va ma’lumotni ochiqlash siyosatini, faoliyat samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlari (KPI); ushbu band qoidalarining joriy nazoratiga tegishli Kuzatuv Kengashi raisining farmoyishlarini bajarish (og‘zaki yoki yozma) Jamiyatning barcha xodimlari uchun majburiy hisoblanadi;
- Jamiyatning ichki hujjatlarini kelishish, tasdiqlanishi O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatları” va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni va Jamiyat ustavi bilan aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi vakolatiga tegishli bo‘lgan hujjatlar bundan mustasno;
- Jamiyatda xavf-xatarlarni boshqarish, ichki nazorat va ichki auditni tashkil qilishning tamoyillari va yondashuvlarini belgilash (ichki nazorat, ichki audit va xavf-xatarlarni boshqarish uchun mas’ul bo‘linmalar (mansabdor shaxslar) tomonidan tayyorlangan hisobotlar, xulosalar va boshqa hujjatlarni ko‘rib chiqish) va zarur hollarda ular tomonidan aniqlangan kamchiliklar va buzilishlarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan tezkor choratadbirlarni ko‘rish, tavsiyalarni bajarish;
- ichki nazorat tizimi faoliyatini ta’minalash;
- Jamiyatdagi hisob, hisobot va ichki nazoratning holatini ko‘rib chiqish, filiallar (vakolatxonalar) rahbarlarining taftish va ichki audit xizmati (taftish komissiyasi, ichki audit, taftishchi) (agar jamiyatda taftishchi faoliyati ko‘zda tutilgan bo‘lsa) tomonidan o‘tkazilgan ular faoliyatining tekshiruvlari natijalari bo‘yicha hisobotlarini tinglash;
- Jamiyat tomonidan qonunchilik talablarining ijrosi uchun mas’ul maxsus mansabdor shaxslarning hisobotlarini tinglash, ushbu masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilish, xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha ijroni ta’minalash;
- ichki nazorat va xavf-xatarlarni boshqarishni takomillashtirish;

- Jamiyatning moliyaviy barqarorligi va faoliyati uzlusizligi rejasini, ichki auditni tashkil etish bo'yicha ichki hujjatlarni, ichki audit xizmati rahbari nomzodini (taftish komissiyasining raisi, ichki auditor, taftishchi) (agar jamiyatda taftishchi faoliyati ko'zda tutilgan bo'lsa) ko'rib chiqish va tasdiqlash, ichki audit xizmatining faoliyat yuritishini ta'minlash bo'yicha choralar ko'rish (ichki auditor, taftish komissiyasi, taftishchi faoliyati);
- Jamiyatning qo'mitalari/komissiyalari, ularning vakolatlari va faoliyat yuritish tartibini belgilovchi ichki hujjatlarni, shuningdek moliyaviy operatsiyalar va bitimlar, Jamiyatning tarkibiy bo'linmalari, markaziy apparati va filiallarining (vakolatxonalarining) o'zaro munosabatlari tartibini, filiallar (vakolatxonalar) rahbarlari lavozimlariga nomzodlarni tasdiqlash, bunday lavozimlardan ozod qilish masalalarini ko'rib chiqish, eng ko'p o'rnak bo'lgan xodimlarni rag'batlantirish to'g'risida takliflarni ko'rib chiqish, filialni (vakolatxonani) boshqarish bo'yicha Jamiyatning muxtor vakilini tayinlash to'g'risida qaror qabul qilish, filiallar va vakolatxonalar to'g'risidagi Nizomlarni tasdiqlash, filiallar (vakolatxonalar) va markaziy boshqarish tizimi tarmoqlarini takomillashtirish bo'yicha ishlarni tashkil etish va olib borish, ularning maqomi va nomini o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Jamiyatning tartibga soluvchi va nazorat organlar, asosiy hamkorlar, moliyaviy xizmatlar iste'molchilarini va bozorning boshqa ishtirokchilarini bilan o'zaro munosabatlarini tashkil etish va amalga oshirish;
- Jamiyatning barcha toifadagi xodimlari uchun ichki mehnat tartib-qoidalari, lavozim yo'riqnomalari, jazo qo'llash va rag'batlantirishni tartibga soluvchi ichki hujjatlarni tasdiqlash, o'rta bo'g'indagi rahbarlarni moddiy mukofotlash va mehnat shartnomalarining asosiy shartlarini kelishish, shuningdek jamoa shartnomalari va kelishuvlari tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Jamiyatning barcha xodimlari uchun bajarish majburiy bo'lgan farmoyishlar chiqarish va ko'rsatmalar berish;
- eng ilg'or moliyaviy texnologiyalarni joriy etish, uning faoliyatini avtomatlashtirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish, Jamiyat faoliyatini qo'llab-quvvatlashning zamonaviy infratuzilmasini yaratish. Bunda Jamiyatning biznesiga yangi axborot texnologiyalarining (IT) ta'sirini baholashni, shuningdek Jamiyat uchun kibertahdidlar bilan bog'liq xavf-xatarlarning muhimlik darajasini belgilash.
- qonunchilikka muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

12.5. Jamiyat Kuzatuv Kengashi vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Jamiyatning Ijroiya organiga o'tkazilishi mumkin emas.

12.6. Jamiyat Kuzatuv Kengashining a'zolarini saylash kumulyativ ovoz berish bilan amalga oshiriladi. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovoz Kuzatuv Kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi, bunda aksiyador ovozlarning jami sonini bitta nomzodga berish yoki ularni ikki va undan ko'proq nomzodlar o'rtasida taqsimlash huquqiga egadir. Eng ko'p ovoz olgan nomzodlar Jamiyatning Kuzatuv Kengashiga saylangan hisoblanadi.

12.7. Kuzatuv Kengashining raisi Jamiyat aksiyadorlari yoki Kengash a'zolari tomonidan yig'ilishda ularning eng ko'p sonli ovozi bilan saylanadi. Kuzatuv Kengashi o'z raisini Kuzatuv Kengashi a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qayta saylashga haqlidir.

12.8. Kuzatuv Kengashining raisi uning ishini tashkillashtiradi, Kuzatuv Kengashining majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi.

12.9. Kuzatuv Kengashi raisi bo'lman Hollarda uning vazifasini Kuzatuv Kengashi raisining o'rinosari bajaradi, u ham aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan hamda Kengash a'zolari

tomonidan ko‘pchilik ovozlar bilan saylanishi mumkin.

12.10. Jamiyat Kuzatuv Kengashining yig‘ilishlari uning raisi tomonidan har chorakda kamida bir marta chaqiriladi va o‘tkaziladi.

12.11. Kuzatuv Kengashining yig‘ilishlari Kuzatuv Kengashining raisi tomonidan o‘z tashabbusiga ko‘ra, Kuzatuv Kengashining, Kuzatuv Kengashi raisi o‘rribosarining, taftish komissiyasi (taftishchi) (agar jamiyatda taftishchi faoliyati ko‘zda tutilgan bo‘lsa) va ijroya organining talabiga ko‘ra chaqiriladi.

12.12. Kuzatuv Kengashining yig‘ilishini o‘tkazish uchun kvorum Jamiat Kuzatuv Kengashi tarkibiga saylangan a’zolarning yetmish besh foizini tashkil qiladi. Jamiat Kuzatuv Kengashining qarori, agar unda Jamiat Kuzatuv Kengashi tarkibiga saylangan a’zolarning yetmish besh foizi hozir bo‘lganda haqiqiy deb hisoblanadi.

12.13. Kuzatuv Kengashining qarori yig‘ilishda hozir bo‘lganlarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Kuzatuv Kengashining har bir a’zosi Kuzatuv Kengashining yig‘ilishida masalalarni hal qilishda bitta ovozga ega bo‘ladi. Kuzatuv Kengashining bitta a’zosi o‘z ovozini Kengashning boshqa a’zosiga berishga haqli emas. Ovozlar teng bo‘lganda Kuzatuv Kengashi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

12.14. Kuzatuv Kengashining a’zolari yig‘ilishda video va audio konferensiya aloqa vositalari yordamida ishtirok etishlari mumkin, bunda ularning ovozi qarorlar qabul qilish uchun sirtdan berilgan bo‘lmasligi lozim.

12.15. Balans yoki boshlang‘ich bahosi qaror qabul qilingan sanada Jamiat so‘aktivlarining o‘n besh foizidan ellik foizigacha bo‘lgan mulk bilan yirik bitim tuzish to‘g‘risidagi qaror Kuzatuv Kengashi a’zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi. Bunda Kuzatuv Kengashidan tarkibidan chiqib ketgan a’zolarning ovozlari xisobga olinmaydi. Bunda Jamiatning kundalik faoliyati davomida tuzilgan bitimlar (sug‘urta, qayta sug‘urtalash va investitsion faoliyat) (sug‘urta, qayta sug‘urtalash va investitsion faoliyat bilan bog‘liq shartnomalar), aksiyalar va qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish bilan bog‘liq bitimlar ushbu bandning maqsadlarida yirik bitimlar deb hisoblanmaydi.

12.16. Jamiat Kuzatuv Kengashining yig‘ilishida bayonnomma yuritiladi. Kuzatuv Kengashi yig‘ilishining bayonnomasi u o‘tkazilgan kundan o‘n kundan kechiktirmay tuziladi. Yig‘ilish bayonnomasida quydagilar ko‘rsatilishi lozim:

- uchrashuv sanasi, vaqt va joyi;
- yig‘ilishda hozir bo‘lgan shaxslar;
- majlis kun tartibi;
- ovoz berishga qo‘ylgan masalalar, ular bo‘yicha ovoz berish natijalari;
- qabul qilingan qarorlar.

Jamiat Kuzatuv Kengashining bayonnomasi yig‘ilishdagi Jamiat Kuzatuv Kengashining a’zolari tomonidan imzolanadi, ular yig‘ilish bayonnomasining to‘g‘ri tuzilishi uchun javobgardirlar.

12.17. Jamiat Kuzatuv Kengashining qarorlari sirtdan ovoz berish yo‘li bilan Jamiat Kuzatuv Kengashining barcha a’zolari tomonidan yakdillik bilan qabul qilinishi mumkin.

12.18. Jamiat Kuzatuv Kengashi yig‘ilishining bayonnomasi imzolangan kuni Jamiat ijroya organiga ijro uchun beriladi. Kuzatuv Kengashi tomonidan aksiyadorlar umumi yig‘ilishini chaqirish to‘g‘risida qaror qabul qilinganda mazkur qaror to‘g‘risidagi ma’lumotlar Jamiatning ijroya organiga Kuzatuv Kengashi yig‘ilishi o‘tkazilgan kuni beriladi.

12.19. Aksiyadorlar umumi yig‘ilishining qarori bilan Jamiat Kuzatuv Kengashining a’zolariga ularning o‘z vazifalarini bajarish davrida mukofot to‘lanishi va/yoki Kuzatuv Kengashi a’zolarining vazifasini bajarish bilan bog‘liq xarajatlari qoplab berilishi mumkin. Bunday mukofotlar va kompensatsiyalarning miqdori Jamiat aksiyadorlar umumi yig‘ilishining qarori

bilan belgilanadi.

12.20. Kuzatuv Kengashi mazkur ustav va Kuzatuv Kengashi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq ish yuritadi.

### XIII. JAMIYATNING IJROIYA ORGANI

13.1. Jamiyatning kundalik faoliyatiga yakkaboshchilik asosidagi rahbarlik qiluvchi ijroiya organ - Bosh direktor tomonidan amalga oshiriladi.

13.2. Jamiyat Bosh direktori vakolatiga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, Jamiyat aksiyadorlarining umumiyligi yig‘ilishi va Kuzatuv Kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

13.3. Jamiyat Bosh direktori O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyat ustavi, Jamiyat aksiyadorlari va Kuzatuv Kengashining qarorlariga muvofiq operativ boshqaruvni amalga oshiradi.

13.4. Jamiyat Bosh direktori qonunchilik va mazkur ustavga muvofiq aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi va Kuzatuv Kengashi hisobdordir.

13.5. Jamiyatning ijroiya organi rahbarini (Bosh direktorini) lavozimga saylash (tayinlash) va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish Jamiyat Kuzatuv Kengashi qaroriga yoki aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishining qarori qarori bilan amalga oshiriladi.

13.6. Bosh direktorning vazifasini boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlaridagi lavozim bilan qo‘sib bajarishga faqat Jamiyat Kuzatuv Kengashining roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi.

13.7. Jamiyatning Bosh direktori jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi va uning manfaatlarini himoya qiladi.

13.8. Jamiyatning Bosh direktori vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- Jamiyatning Kuzatuv Kengashi tomonidan tasdiqlangan faoliyatni boshqarishning strategiyasi va tizimiga muvofiq Jamiyatni operativ boshqarishni tashkil etish va Jamiyatning faoliyati uchun to‘liq javobgar bo‘lish;
- Jamiyatning qabul qilingan yillik biznes-rejasini bajarish, shuningdek davriy ravishda (yoki so‘rov bo‘yicha) aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishiga va Kuzatuv Kengashiga qilingan ishlarni, Jamiyatning faoliyatini tartibga soluvchi davlat organlari tomonidan Jamiyatga qo‘llanilgan choralar va sanksiyalar to‘g‘risida hisobotlar berib borish;
- Jamiyat ustaviga muvofiq aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi va Kuzatuv Kengashida ko‘rib chiqadigan masalalarni dastlabki ko‘rib chiqish va mazkur masalalar bo‘yicha dastlabki qarorlar, tegishli takliflar va materiallarni tayyorlash;
- Jamiyatni boshqarishning tegishli va shaffof tashkiliy tuzilmasini ta’minlash, shu jumladan xodimlar o‘rtasida o‘z vakolatlarida doirasida vakolatlar va javobgarlikni taqsimlash;
- Jamiyat, uning filiallari va vakolatxonalari tarkibiy bo‘linmalarining faoliyatini tashkil etish;
- Jamiyat ustavi va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida Jamiyat tomonidan ko‘rsatiladigan xizmat turlarini (sug‘urta mahsulotlarini) kengaytirish to‘g‘risidagi qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishni tashkil etish;
- Jamiyat faoliyati masalalari bo‘yicha, shu jumladan bitimlar, korrespondensiyalar va hujjatlarni rasmiylashtirish va imzolash tartibi to‘g‘risidagi ichki hujjatlarni ko‘rib chiqish hamda tasdiqlash (Nizomlar, qoidalar, uslubiy tavsiyalar, yo‘riqnomalar boshqalar), tasdiqlanishi aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi, Kuzatuv Kengashi, Jamiyat ustavi va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan belgilanadigan hujjatlar bundan mustasno;
- Jamiyat xodimlarining faoliyatini va ular tomonidan O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish;
- Jamiyatning operatsiyalarini o‘tkazish, hisob, hisobot, ichki nazorat, shartnomalar tuzish

- bo'yicha joriy masalalar va Jamiyat faoliyatini bilan bog'liq boshqa asosiy masalalarni hal etish;
- o'z vakolatlari doirasida kadrlarni tanlash, tayyorlash va ulardan foydalanish masalalarini hal etish;
  - Jamiyat majburiyatnomalarini berish, pul-hisob hujjatlari va korrespondensiyalarni imzolashning umumiy shartlari va tartibini tasdiqlash;
  - Jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim (shu jumladan qarz, kredit, garov, kafillik) yoki o'zaro bog'langan bir nechta bitim, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining o'n besh foizidan ortig'ini tashkil etmaydigan shartnomasi (bitim)larni rasmiylashtirish (tuzish) va ularni Jamiyat nomidan imzolash (tasdiqlash);
  - Jamiyat faoliyatini maqbullashtirish uchun o'z vakolatlari doirasida qo'mitalar tuzish;
  - Jamiyat nomidan vakil bo'lish huquqiga ega ishonchnomalar berish;
  - o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning xodimlari bilan mehnat shartnomalari tuzish va ularni bekor qilish, ularga nisbatan rag'batlantirish choralarini ko'rish va intizomiy jazolar qo'llash;
  - Jamiyat buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish, ular yuritilishining to'g'riliqi va haqqoniyliginni ta'minlash, tegishli organlarga yillik hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlarni taqdim etish, shuningdek Jamiyatning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni aksiyadorlar, kreditorlar va boshqa oluvchilarga yuborish;
  - qonunchilik talablariga muvofiq Jamiyatning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish;
  - arxiv ishini tashkil etish va undagi hujjatlarning saqlanishini ta'minlash;
  - mazkur ustavda ko'rsatilgan, Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv Kengashining vakolatlariga kirmaydigan Jamiyat joriy faoliyatining boshqa masalalari.

13.9. Bosh direktor o'z huquqlarini amalga oshirish va vazifalarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab harakat qilishi lozim va qonunchilikda belgilangan tartibda javobgardir.

13.10. Ijroya organ – Bosh direktor bilan mehnat shartnomasi Jamiyatning nomidan Kuzatuv Kengashining raisi yoki Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan vakolat berilgan shaxs tomonidan uch yil muddatga imzolanadi.Bosh direktor bilan kelishuvda uning Jamiyat faoliyatining samaradorligi oshirish va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Jamiyatning Kuzatuv Kengashiga Jamiyat yillik biznes-rejasining bajarilishi to'g'risida doimiy hisobot berib borish bo'yicha majburiyatları nazarda tutilgan bo'lishi lozim.

13.11. Jamiyatning Ijroiya organi mazkur ustav va Ijroya organi to'g'risidagi nizomga muvofiq ish yuritadi.

#### **XIV. MOLIYA-XO'JALIK FAOLIYATINI NAZORAT QILISH**

14.1. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish aksiyadorlar umumiy yig'ilishining, Jamiyat Kuzatuv Kengashining tashabbusiga ko'ra yoki Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadornarning) talabiga ko'ra Jamiyat Kuzatuv Kengashini oldindan xabardor qilish yo'li bilan bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha amalga oshiriladi.

14.2. Jamiyat qonun hujjatlariga muvofiq jamiyatda ichki audit xizmati tashkil qilishi mumkin. Ichki audit xizmati Jamiyatning Kuzatuv Kengashiga hisobdordir..

14.3. Jamiyatning moliyaviy hujjatlari ishonchliligi va buhgalteriya hisobotini olib borish tartibi o'rnatilgan talablarga mosligini tekshirish uchun jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan qarorga asosan jamiyatning ichki auditori saylanadi.

14.4. Ichki auditor o'z vakolati doirasida Jamiyat mansabdor shaxslaridan buhgalteriya, moliya va boshqa turdagji Jamiyat faoliyatini bilan bog'liq hujjatlarini so'rab olish huquqiga ega.

14.5. Jamiyatning yillik hisobotlari va balanslariga ichki auditor o'z hulosalarini berishi lozim. Jamiyat o'z faoliyatni natijalarini buhgalteriya va statistika hisobotini O'zbekiston Respublikasining qonun va me'yoriy hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

14.6. Jamiyatning faoliyat yakunlari belgilangan tartibda tuziladigan hisobotlarda aks ettiriladi.

#### **Auditorlik tashkiloti (tashqi auditor)**

14.7. Auditorlik tashkiloti Jamiyat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonunchilikda belgilangan tartibda Jamiyat moliya-xo'jalik faoliyatining tekshirilishini amalga oshiradi va unga auditorlik xulosasini taqdim etadi.

14.8. Auditorlik tashkiloti Jamiyatning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborot haqidagi noto'g'ri xulosani o'z ichiga olgan auditorlik xulosasi tuzilganligi oqibatida yetkazilgan zarar uchun Jamiyat oldida javobgar bo'ladi.

### **XV. JAMIYATNING HUJJATLARINI SAQLASH**

15.1. Jamiyat quyidagi hujjatlarni saqlashi shart:

- Jamiyatning ustavini, ustavga kiritilgan, belgilangan tartibda ro'yhatdan o'tkazilgan o'zgartish va qo'shimchalarni, Jamiyatni tashkil etish to'g'risidagi qarorni, Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqidagi guvohnomani;
- Jamiyatning o'z balansidagi mol-mulkka bo'lgan huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlarni;
- Jamiyatning aksiyadorlari umumiyligi yig'ilishi va boshqa organlari tomonidan tasdiqlanadigan hujjatlar;
- Jamiyatning filiali va vakolatxonalari to'g'risidagi Nizomlar;
- Jamiyatning yillik hisoboti;
- emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorlar;
- aksiyalar emissiyasi risolalarini;
- buxgalteriya hisobiga doir hujjatlari;
- tegishli organlarga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlar;
- Jamiyat aksiyadorlari umumiyligi yig'ilishi, Kuzatuv Kengashi, taftish komissiyasining (taftishchining) (agar jamiyatda taftishchi faoliyati ko'zda tutilgan bo'lsa) bayonnomalari, shuningdek Jamiyat Bosh direktorining buyruqlari;
- Jamiyatning affillangan shaxslari ro'yxati;
- Jamiyat aksiyadorlarining reestrlerini;
- jamiyat taftish komissiyasining (taftishchisining) (agar jamiyatda taftishchi faoliyati ko'zda tutilgan bo'lsa), auditorlik tashkilotining xulosalari va hisobotlarini, nazorat qiluvchi davlat organlarining tekshiruvlari dalolatnomalarini saqlashi shart.

Jamiyat qonunchilik va Jamiyat ustaviga muvofiq boshqa hujjatlarni ham saqlashi shart.

### **XVI. JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH**

16.1. Jamiyatni qayta tashkil etish (jumladan: qo'shib olish, qo'shib yuborish, birlashtirish, bo'lish, ajratib chiqarish va qayta tuzish) Jamiyat aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining qarori asosida, shuningdek, amaldagi qonun hujjatlari bilan belgilangan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.

16.2. Jamiyatni tugatish aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining qarori asosida, shuningdek, amaldagi qonun hujjatlari bilan belgilangan hollarda va tartibda amalga oshiriladi. Jamiyatni tugatish Jamiyat faoliyatining uning xuquq va majburiyatlari huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxslarga o'tmagan holda jamiyat faoliyatiniqo'xtatilishiga olib keladi.

## XVII. YAKUNIY QOIDALAR

17.1. Mazkur Ustavga kiritilayotgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar O'zbekiston Respublikasining tegishli davlat organidan belgilangan tartibda ro'yhatga olinadi.

17.2. Agar mazkur Ustavni biron bir qoidasi o'z kuchini yo'qotgan bo'lisa, bu qoida boshqa qoidalarni to'xtatish uchun sabab bo'lmaydi.

17.3. Agar O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida mazkur Ustavda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lisa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari qoidalari qo'llaniladi.

17.4. Mazkur Ustav tartibga solinmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

«SEMURG INSURANCE» AJ  
Bosh direktori:



R.K.Kadirov